

“O‘TGAN KUNLAR” - YOSHLAR NIGOHIDA

Mexribonova Sitora Azamat qizi

TDTU “Muhandislik texnologilari” fakulteti “Biotexnologiya” yo‘nalishi 3-kurs
talabasi

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek adabiyotining buyuk namoyondalaridini biri Abdulla Qodiriyning XIX asr o‘rtasidagi mudhish tarixiy jarayonlarini qamrab olgan “O‘tgan kunlar” ramanining bugungi kun yoshlari nigohidagi talqini, uning tarbiyaviy ahamiyat, vatan mustaqilligi, millat birdamligi haqida ilgari surilgan g‘oyalar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar : *Inqilob, istiqbol, nash‘u namo, yatimxonalar, huriyat, jo‘shqin, razolar, oila madaniyati, millatparvar, taraqqiyparvar, jumhuriyat.*

Kirish: Har o‘tgan kun, har o‘tgan davr tarixga, xotiraga aylanadi. Xotiralar esa yillar o‘tgan sari xira tortadi va yoddan ko‘tarila boshlaydi. Ayniqsa, ijod ahliga oid xotiralar to‘qilgan, sun‘iy va g‘ayri tabiiy bo‘lsa, garchand ular zar muqovali kitoblar ichiga oltin harflar bilan bitilgan bo‘lsa ham, baribir unutiladi. Chunki ijodkorning insoniyat xotirasiga abadiy muhrlanishi uchun, eng avvalo uning asarlari o‘quvchilar tomonidan izlab topib, qayta-qayta sevib mutolaa qilinishi, kitobxon asar qahramonlarining ichki kechinmalarini his qila oladigan adabiyot durdonasi bo‘lishi lozim.

Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotiga xuddi momaqaldiraqdek gulduros bilan kirib keldi, chaqmoqdek hammaning diqqatini o‘ziga jalb etdi... Qodiriyning xalqimizga qilgan xizmatlari beqiyos. Adib o‘z asarlari bilan xalqimiz ongiga yetkazgan ma‘naviy ozuqaning qiyosi yo‘qdir. U o‘z hayotida millat dardi, Vatan muhabbati, mustaqillik orzusi bilan yashadi.

„O‘tgan kunlar“ yaratilgan davr o‘zbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi, mustaqilligi, jahondagi o‘rni masalasi hayot-mamot ahamiyatiga molik edi. Abdulla Qodiriy yurtimizning bir qator taraqqiyparvar ziyolilari(jadidlar) safida turib ona yurtning, millatning taqdiri ustida astoydil qayg‘urdi, o‘zicha najot yo‘lini izladi.

Murakkab tarixiy hodisalar romanning bosh qahramonlari Otabek va Kumushbibining fojiviy sevgi qissasi atrofida ifodalangan. Voqelar rivoji mahalliy hukmdorlarning hokimiyat uchun qonli kurashlari muhitida kechadi. 1920-yillar boshida Abdulla Qodiriy birinchi o'zbek romani bo'lmish „O'tkan kunlar“ni yozadi. 1922-yili ilk bor „Inqilob“ jurnalida chop etilib, 1926-yilda esa alohida kitob holida chiqadi.

Adib „O'tkan kunlar“ romani orqali xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi bo'ldi va „tariximizning eng kir, qora kunlari“ yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi „xon zamonlari“ - XIX asr o'rtasidagi mudhish tarixiy jarayonlar haqida so'z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo'ldi. „O'tkan kunlar“ romanining mazmun va g'oyaviy doirasi nihoyatda keng . Unda xilma-xil insoniy taqdir, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy, ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida millatning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Binobarin, el-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning asosini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqboli, faravonligi, osoyishtaligi yo'liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilardir. Ayniqsa, romanda Yusufbek hoji tarafidan aytilgan quyidagi gaplar, aslida, asl yurt o'g'loni, Vatan uchun jonini tikkan Qodiriyning o'z xalqiga, millatiga qarata aytilgan bashorati va alamli bir faryodi edi:

„Men ko'b umrimni shu yurtning tinchlig'i va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni ne el ekanini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati shaxsiyasi yo'lida bir-birini yeb, ichkan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizg'a aqlim yetmay qoldi. Biz shu holda ketadig'an, bir-birimizning tegimizga suv quyadig'an bo'lsaq yaqindirki, o'rus istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsaq o'z qo'limiz bilan kelgusi naslimizning bo'ynig'a o'rus bo'yindirig'ini kiydirgan bo'larmiz. O'z naslini o'z qo'li bilan kofir qo'lig'a tutqin qilib topshirquchi — biz ko'r va aqlsiz otalarg'a Xudoning la'nati albatta tushar, o'g'lim! Bobolarning muqaddas gavdasi madfun Turkistonimizni to'ng'uzxona qilishig'a hozirlang'an biz itlar yaratguchining qahriga albatta yo'liqarmiz! Temur Ko'ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi

fotihlarning, Forobiy, Ulugʻbek va Ali Sino kabi olimlarning oʻsib-ungan va nashʻu namo qilgʻanlari bir oʻlkani halokat chuqurigʻa qarab sudragʻuchi albatta tangrining qahrigʻa sazovordir, oʻgʻlim! Gunohsiz bechoralarni boʻgʻizlab, bolalar yatimxonalarini vayron qilgʻuchi zolimlar — qurtlar va qushlar, yerdan oʻsib chiqqʻan giyohlar qargʻishigʻa nishonadir, oʻgʻlim!..“

Ushbu satrlar orqali Abdulla Qodiriy oʻzining sevimli qahramoni Yusufbek hoji tili bilan bizni ahillikka, inoqlikka chaqiradi, millat uchun noahillik illatidan yomon illat yoʻqligi haqida ogohlantirib keladi. Adibimizning ushbu soʻzlari ona diyorumiz mustaqillikka erishgan bu saodatli kunlarda alohida oʻrin tutmoqda. Abdulla Qodiriy asarlari adabiyotimiz xazinasidan munosib oʻrin egalladi.

Adabiy barhayot asarlar doimo kitobxonda yanggi oʻy yanggi fikr tugʻdirar ekan, demak, bu asarlarning doim diqqat markazida turishi ham tabiiydir. Biz oʻtgan kunlarni qancha koʻp oʻqisak ham, hargal oʻqiganimizda oʻzgacha taassurotga ega boʻlamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy. "Oʻtgan kunlar" // Nashriyot "SHARQ" NMAK. 2018.
2. Zarif Bashir. "Oʻzbek adabiyoti" // 1929.
3. Boymirza Hayit. "Turkiston yangi adabiyotida ikki siymo: Qodiriy va Choʻlpon" // Nashriyot: "Milliy turkiston" majmuasi // 1964- y. May.